



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

**BOBURNING BAHOLOVCHI NUTQI VA LISONIY PORTRET YARATISH MAHORATI  
(“BOBURNOMA” MISOLIDA)**

**Amanov Abdijabbor Sattarovich**

Namangan davlat universiteti, dotsent (PhD)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi baholovchi nutqi o‘zbek tilshunosligi yutuqlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Shayboniyxon va Xusravshoh obrazlari, shuningdek, ayollar haqidagi nutqiy tasvirlar misolida Boburning lisoniy portret yaratish mahorati ochib beriladi. Muallifning leksik tanlovi, kontrast, anafora va baholovchi birliklar orqali axloqiy va ijtimoiy pozitsiya ifodalashi ko‘rsatib beriladi. Maqolada “Boburnoma” tili tarixiy bayon bilangina cheklanmay, ongli pragmatik va axloqiy diskurs sifatida talqin qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Boburnoma, baholovchi nutq, pragmatika, lisoniy portret, nutq madaniyati.

**ОЦЕНОЧНАЯ РЕЧЬ БАБУРА И МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО  
ПОРТРЕТА**

**(НА ПРИМЕРЕ «БАБУРНАМЕ»)**

**Аманов Абдижаббор Саттарович**

Наманганский государственный университет, доцент (PhD)

**Аннотация**

В статье оценочная речь Захириддина Мухаммада Бабура в произведении «Бабурнаме» анализируется на основе исследований узбекских лингвистов. На примере образов Шайбани-хана, Хусравшаха и женских персонажей раскрывается мастерство создания лингвистического портрета. Показано, что язык «Бабурнаме» представляет собой не только историческое повествование, но и целенаправленный нравственно-прагматический дискурс.

**Ключевые слова:** Бабурнаме, оценочная речь, прагматика, лингвистический портрет, речевая культура.

**BABUR’S EVALUATIVE SPEECH AND MASTERY IN CREATING A LINGUISTIC  
PORTRAIT**

**(BASED ON “BABURNAMA”)**

**Amanov Abdijabbor Sattarovich**

Namangan State University, Associate Professor (PhD)

**Abstract**

This article examines the evaluative speech in *Baburnama* by Zahiriddin Muhammad Babur based primarily on Uzbek linguistic scholarship. Using the images of Shaybani Khan, Xusravshah, and female characters, the study reveals Babur’s skill in constructing linguistic portraits through evaluative lexical choices and pragmatic strategies. The paper argues that *Baburnama* functions not only as a historical narrative but also as a moral and pragmatic discourse.

**Keywords:** Baburnama, evaluative speech, pragmatics, linguistic portrait, Uzbek linguistics.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘zbek adabiyoti, tarixshunosligi va tilshunosligi taraqqiyotida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu asar nafaqat tarixiy voqealarni bayon qiluvchi memuar manba, balki muallifning shaxsiy kuzatuvlari, siyosiy tajribasi, axloqiy qarashlari va nutqiy mahoratini mujassamlashtirgan yirik badiiy-tarixiy yodgorlikdir. “Boburnoma”da muallif voqealarni quruq tarixiy fakt sifatida emas, balki ularning ichki mazmuni, insoniy mohiyati va ijtimoiy oqibatlarini bilan birga tasvirlaydi. Shu sababli asarda tarixiy shaxslar tasviri alohida ilmiy e’tiborga loyiqdir.

Bobur o‘z asarida turli ijtimoiy maqomga ega shaxslar — hukmdorlar, sarkardalar, beklar, olimlar, san’atkorlar, ayollar, yaqin qarindoshlar va raqiblar haqida fikr bildiradi. Uning tasvir uslubi bir xil emas: dushmanlariga nisbatan ehtiyotkor, ammo keskin; yaqinlariga nisbatan samimiy, ammo etiket doirasida; siyosiy shaxslarga nisbatan xolis, ammo axloqiy mezonlarga tayangan holda baholovchidir. Aynan shu jihat “Boburnoma”ni lisoniy-pragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tarixiy asarlarda muallifning raqibiga yoki zamondoshiga qanday baho bergani tasodifiy hodisa

emas. Bunday baho muallifning dunyoqarashi, nutqiy madaniyati, ijtimoiy mavqeyi va axloqiy pozitsiyasini ko'rsatadi. Bobur raqiblarini ochiq haqorat qilish yo'ldan bormaydi; aksincha, baholovchi so'zlar, qarama-qarshi konstruksiyalar, diniy-huquqiy terminlar va tarixiy faktlar orqali ularning qiyofasini o'quvchi ongida shakllantiradi. Bu esa "Boburnoma"da shaxs tasviri bevosita emas, balki bilvosita pragmatik vositalar orqali yaratilishini ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar sharhi

"Boburnoma"ni ilmiy jihatdan o'rganish ko'p yo'nalishli xarakterga ega. Asar tarixshunoslik, adabiyotshunoslik, manbashunoslik, tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilingan. Tadqiqotimiz uchun, avvalo, "Boburnoma"ning o'zi asosiy birlamchi manba vazifasini bajaradi. Bobur asarida tarixiy shaxslar tasviri, muallif bahosi, voqea bayoni va nutqiy madaniyat bir butun holda namoyon bo'ladi [1].

A. Abdullayevning o'zbek tilida ekspressivlikning sintaktik usullari haqidagi qarashlari "Boburnoma"dagi antitezali konstruksiyalarni tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Olimning fikricha, gap komponentlari o'rtasidagi ziddiyat kuchli bo'lsa, matnda ekspressivlik va ta'kid kuchayadi [2]. Bu nazariy yondashuv Boburning Shayboniyxon va Xusravshohga bergan baholarini tushuntirishda muhimdir. Chunki Bobur ko'pincha avval ijobiy sifatni tan oladi, keyin esa uni salbiy axloqiy baho bilan muvozanatlashtiradi. Masalan, "ra'y va tadbiri yaxshi erdi" kabi ijobiy baho "bebok va fosiq erdi" tarzidagi salbiy baho bilan qarama-qarshi qo'yiladi.

N. Qozoqovanning "Badiiy matn pragmatikasi" nomli tadqiqotida badiiy matnda muallif pozitsiyasi, lisoniy tanlov va pragmatik ma'no o'rtasidagi bog'liqlik masalalari yoritilgan [3]. Bu yondashuv "Boburnoma"dagi baholovchi nutqni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Chunki Bobur ko'pincha voqeani xolis bayon qilgandek ko'rinadi, ammo tanlagan so'zlari orqali o'quvchini muayyan axloqiy xulosaga olib keladi. Demak, "Boburnoma"da pragmatik ma'no ochiq hukm orqali emas, balki leksik tanlov, kontekst va baholovchi birliklar orqali yuzaga chiqadi.

A. Nurmonov va Sh. Shahobiddinovaning grammatik kategoriya haqidagi mulohazalari ham ushbu maqola uchun nazariy ahamiyatga ega. Ularning fikricha, muayyan ma'no umumiyliги ostida birlashgan va o'zaro zidlanadigan shakllar tizimi grammatik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi [4]. Bu qarash "Boburnoma"dagi ziddiyatli baholash modellarini tahlil qilishda qo'llanilishi mumkin. Chunki Bobur tasvirida "ibodat — zulm", "aql — fosiqlik", "siyosiy kuch — axloqiy zaiflik", "tashqi dindorlik — ichki johillik" kabi semantik qarama-qarshiliklar muhim o'rin tutadi.

V. V. Bogdanovning nutqiy muloqotga oid tadqiqotida kommunikant shaxsini shakllantiruvchi omillar — til malakasi, milliy kelib chiqish, ijtimoiy-madaniy mavqe, psixologik tip, tashqi ko'rinish, odat va qiziqishlar alohida ko'rsatiladi [5]. Bu yondashuv Boburning shaxs tasvirida faqat voqea yoki xarakter emas, balki nutqiy odat, ijtimoiy maqom, diniy-amaliy ko'rinish, psixologik holat va axloqiy pozitsiyani ham hisobga olishini anglashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Boburnoma"ni faqat tarixiy voqealar manbai sifatida emas, balki lisoniy-pragmatik hodisa sifatida o'rganish ilmiy jihatdan muhimdir. Asarda shaxs qiyofasi voqea bayoni, baholovchi leksika, antitezali konstruksiyalar, nutq etiketi va muallifning yashirin pragmatik pozitsiyasi orqali yaratiladi.

#### Tahlil va natijalar

##### 1. Shayboniyxon obrazida antitezali baholash mexanizmi

"Boburnoma"da Boburning eng asosiy siyosiy raqiblaridan biri Muhammad Shayboniyxon hisoblanadi. Bobur Shayboniyxon haqida fikr bildirar ekan, uni oddiy dushman sifatida emas, murakkab tarixiy shaxs sifatida tasvirlaydi. Muallif raqibining siyosiy va harbiy salohiyatini inkor etmaydi, ammo uning axloqiy qiyofasini keskin tanqid qiladi. Bu esa Bobur nutqida xolislik bilan baholovchi munosabat birgalikda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Bobur Shayboniyxon haqida "ra'y va tadbiri yaxshi erdi" deya uning aql-zakovati va boshqaruv qobiliyatini tan oladi. Biroq mazkur ijobiy baho darhol "bebok va fosiq erdi" degan salbiy tavsif bilan muvozanatlanadi [1]. Bu yerda antitezali baholash mexanizmi ishlaydi: bir tomondan, Shayboniyxon kuchli siyosiy shaxs sifatida tan olinadi; ikkinchi tomondan, uning ma'naviy va axloqiy qiyofasi rad etiladi. Natijada o'quvchi ongida "salohiyatli, ammo axloqan nuqsonli hukmdor" obrazi shakllanadi.

Boburning bu usuli oddiy tanqid emas, balki lisoniy strategiyadir. U raqibini kamsitish uchun bevosita haqoratga murojaat qilmaydi, balki ijobiy va salbiy birliklarni yonma-yon qo'yish orqali kuchli pragmatik ta'sir hosil qiladi. Bunday usul muallifga ikki maqsadga erishish imkonini beradi: birinchidan, tarixiy xolislikni saqlaydi; ikkinchidan, raqibining axloqiy obro'sini pasaytiradi.

Shayboniyxon tasvirida diniy-huquqiy terminlar ham alohida ahamiyatga ega. Bobur “iddat”, “nikoh”, “tafsir”, “qiroat” kabi terminlardan foydalanib, Shayboniyxonning qilmishlarini diniy va shariat mezonlari asosida baholaydi. Masalan, Xonzodaxonim bilan bog‘liq voqeada “iddat chiqorig‘a boqmay, nikoh qilib oldi” mazmunidagi tasvir Shayboniyxon harakatining faqat siyosiy emas, balki diniy-huquqiy jihatdan ham nomaqbul ekanini bildiradi. Bu yerda faktning o‘zi baholovchi kuchga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, Bobur Shayboniyxonning intellektual da‘vosini ham tanqid qiladi. U Shayboniyxonning mashhur olimlar, xattotlar va musavvirlar ishiga aralashganini tasvirlar ekan, “bovujudi omiliq”, “bemaza bayt”, “go‘lona”, “ablahona”, “kofirona” kabi salbiy bo‘yoqdor birliklardan foydalanadi. Bu so‘zlar Shayboniyxonni faqat siyosiy raqib sifatida emas, balki o‘z bilim darajasini ortiqcha baholagan takabbur shaxs sifatida ko‘rsatadi.

Matnda “Yana...” so‘zining takrorlanishi ham muhim pragmatik vazifa bajaradi. Bu anaforik takror Shayboniyxonning ayblari ko‘pligini, ularning ketma-ket sodir bo‘lganini va tasodifiy emas, balki xarakterga aylangan xatti-harakatlar ekanini ta‘kidlaydi. Shu tariqa Bobur birgina voqeani emas, balki butun bir shaxsiy qiyofani yaratadi.

## **2. Xusravshoh obrazida axloqiy hukm va ijtimoiy baho**

“Boburnoma”da Boburning baholovchi nutqi eng keskin namoyon bo‘lgan personajlardan biri Xusravshohdir. Muallif Xusravshohni tasvirlashda ham antitezali baholash usulidan foydalanadi. U Xusravshohning namozxon va ro‘zador ekanini inkor qilmaydi, ammo bu tashqi diniy amallarni uning axloqiy qiyofasini oqlovchi omil sifatida qabul qilmaydi.

Bobur “garchi namozxon va ro‘zador edi, ammo zolim va bedod edi” mazmunidagi baho orqali diniy amal bilan axloqiy mohiyat o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi [1]. Bu yerda “garchi — ammo” modeli kuchli pragmatik konstruktsiya vazifasini bajaradi. Birinchi komponent ijobiy ijtimoiy belgi — dindorlikni bildiradi. Ikkinchi komponent esa bu belgini butunlay inkor qiluvchi axloqiy hukmni ifodalaydi. Natijada dindorlik tashqi niqob sifatida, zolimlik esa haqiqiy mohiyat sifatida talqin qilinadi.

Bobur Xusravshohning zolimligini individual kamchilik sifatida emas, balki butun boshqaruv tizimiga singib ketgan illat sifatida ko‘rsatadi. Muallif nafaqat Xusravshohni, balki uning beklari, navkarlari va atrofidagi kishilarni ham “zolim” va “fosiq” sifatida tasvirlaydi. Bu esa Xusravshoh hokimiyatining axloqiy jihatdan yemirilganini ko‘rsatadi. Shaxsiy nuqson ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa siyosiy tuzumga ko‘chiriladi.

Xusravshohning Sulton Mas‘ud mirzoga nisbatan qilgan harakati tasvirida Boburning baholovchi nutqi eng yuqori nuqtaga chiqadi. Bu voqea muallif tomonidan shunchaki tarixiy fakt sifatida emas, balki insoniylikka qarshi qilingan axloqiy jinoyat sifatida talqin qilinadi. “Kim bu af‘olni eshitsa, la‘nat qilsun” mazmunidagi ibora orqali Bobur o‘quvchini ham axloqiy pozitsiya egallashga undaydi [1]. Bu holat muallif bahosining shaxsiy fikr doirasidan chiqib, umumiy axloqiy hukm darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Mazkur iborada imperativ semantika ham mavjud. Bobur o‘quvchini passiv kuzatuvchi sifatida emas, balki axloqiy baholash jarayonining faol ishtirokchisi sifatida ko‘radi. “La‘nat qilsun” shakli orqali muallif o‘quvchini voqeaga nisbatan hissiy va axloqiy munosabat bildirishga chorlaydi. Bu esa “Boburnoma”dagi pragmatik ta‘sir mexanizmlarining kuchli ekanini ko‘rsatadi.

Xusravshoh obrazining shakllanishida salbiy bo‘yoqdor leksik birliklar muhim rol o‘ynaydi. “Zolim”, “bedod”, “fosiq”, “yaramas” kabi birliklar nafaqat tavsifiy, balki hukm bildiruvchi semantik yuklamaga ega. Bu so‘zlar orqali Bobur shaxsning ichki mohiyatini ochishga harakat qiladi. Natijada Xusravshoh obrazida tashqi hokimiyat va ichki axloqiy inqiroz o‘rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo‘ladi.

Muallif ayrim o‘rinlarda Xusravshohning tashqi diniy qiyofasi bilan uning amaliy faoliyatini qarama-qarshi qo‘yadi. Bu qarama-qarshilik Bobur dunyoqarashida diniy amalning o‘zi yetarli emasligini, haqiqiy insoniylik adolat, insof va rahm-shafqat bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Xusravshoh obrazi “Boburnoma”dagi axloqiy-pragmatik baholashning eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.

Demak, Xusravshoh obrazida Bobur baholovchi nutqning keskin shaklidan foydalanadi. Shayboniyxon tasvirida muallif siyosiy salohiyatni tan olib, axloqiy nuqsonni ko‘rsatsa, Xusravshoh tasvirida uning ijtimoiy va axloqiy maqomi deyarli to‘liq inkor etiladi. Bu esa Bobur nutqida baholash darajalari turlicha bo‘lishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Xusravshoh tasvirida pragmatik keskinlikning kuchayishi Boburning axloqiy pozitsiyasi bilan bog‘liq. Muallif ayrim tarixiy shaxslarga nisbatan muvozanatli baho berishga intilsa, insoniylik mezonlaridan chetga chiqqan personajlarga nisbatan ochiq salbiy munosabat bildiradi. Bu esa Bobur nutqida axloqiy mezon doimo markaziy o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

### **3. Ayollar tasvirida nutq etiketi va lisoniy ehtirom**

“Boburnoma”da ayollar tasviri alohida lisoniy qatlamni tashkil qiladi. Bobur ayollar haqida yozganda boshqa personajlarga nisbatan ehtiyotkor, madaniyatli va etiketga asoslangan nutqdan foydalanadi. Bu holat muallifning shaxsiy madaniyati, oila qadriyatlariga munosabati va o’sha davr ijtimoiy-madaniy me’yorlari bilan bog’liq.

Bobur onasi Qutlug’ Nigorxonim, buvisi Eson Davlatbegim, opasi Xonzodabegim va boshqa ayollar haqida yozar ekan, ularning aql-idroki, maslahat berish qobiliyati va ijtimoiy mavqeyini alohida ta’kidlaydi. Eson Davlatbegim haqida “Xotunlar orasida ra’y va tadbirida mening ulug’ onam Esan Davlatbegimcha kam bo’lg’ay edi, bisyor oqila va mudabbira edi. Ko’prak ish-kuch aning mashvarati bila bo’lur edi” degan mazmundagi baho beriladi [1]. Bu tasvirida ayol shaxs faqat oila a’zosi emas, balki siyosiy maslahat subyekti sifatida ko’rsatiladi.

Bu yerda “mashvarat” so’zi alohida ahamiyatga ega. U oddiy maslahat emas, balki qaror qabul qilish jarayonida muhim ta’sirga ega fikrni bildiradi. Bobur Eson Davlatbegimni “oqila” va “mudabbira” deb atashi orqali ayol kishining aql, tadbir va siyosiy tafakkur egasi sifatidagi qiyofasini yaratadi. Bu esa “Boburnoma”da ayollar tasviri faqat maishiy yoki oilaviy doirada cheklanmaganini ko’rsatadi.

Bobur ayollar haqida yozganda ko’pincha bevosita nutqdan qochadi. Ularning gaplarini ko’proq o’zi bayon qiladi yoki voqea orqali ifodalaydi. Bu holat o’sha davr gender etiketi, ayol nomini bevosita aytmaslik, ayol ovozi ochiq ko’rsatmaslik kabi madaniy me’yorlar bilan bog’liq. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan buni “moderatsiyalangan nutq” yoki lisoniy niqoblash sifatida talqin qilish mumkin.

Ayollar tasvirida qo’llangan lisoniy vositalar pragmatik jihatdan ham muhimdir. Bobur ayollar haqida yozganda qo’pol yoki keskin birliklardan deyarli foydalanmaydi. Aksincha, “oqila”, “xushfe’l”, “mudabbira”, “pokiza”, “hurmatli” kabi ijobiy semantikaga ega birliklar ustunlik qiladi. Bu esa muallifning ayollarga nisbatan ichki ehtiromini ko’rsatadi.

Xonzodabegim bilan bog’liq voqealar tasvirida Bobur nutqida emotsional-ekspressivlik kuchayadi. Ayriliq, sog’inch, yig’i, shodlik kabi semantik maydonlarga oid birliklar Boburning shaxsiy kechinmalarini ochib beradi. Dushmanlarga nisbatan keskin va siyosiy baholovchi til bu epizodlarda nozik, samimiy va hissiy tus oladi. Bu esa Bobur idiolektining ichki ko’lamini ko’rsatadi: u bir vaqtning o’zida ham hukmdor, ham oila a’zosi, ham tarixchi, ham nozik kuzatuvchi sifatida namoyon bo’ladi.

Xonzodabegim tasvirida hissiy-pragmatik qatlam ayniqsa kuchlidir. Bobur uning taqdiri bilan bog’liq voqealarni tasvirlar ekan, ichki ruhiy holatini yashirmaydi. Bu holat muallifning shaxsiy kechinmalari va tarixiy voqealar bir-biri bilan uyg’unlashganini ko’rsatadi. Natijada matnda tarixiy xotira bilan emotsional xotira birlashadi.

Ayollar tasvirida yana bir muhim jihat — metonimik atamalardir. Bobur ayrim xotinlari haqida yozganda ularni bevosita ismi bilan emas, balki farzandi yoki ijtimoiy maqomi orqali tilga oladi. Masalan, “Humoyun onasi” kabi ifodalar ayol shaxsiga nisbatan lisoniy ehtirom va tabu hodisasi bilan bog’liq. Bu holat Bobur nutqida shaxsiy daxlsizlikni saqlashga qaratilgan etik me’yor mavjudligini ko’rsatadi.

Metonimik nomlash Sharq adabiy va madaniy an’analarida keng uchraydigan hodisalardan biridir. Bobur ham ushbu an’anaga amal qilgan holda ayol shaxsni to’g’ridan to’g’ri nomlashdan ehtiyot bo’ladi. Bu esa matnda hurmat, masofa va madaniy noziklikni saqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ayollar tasvirida Bobur ko’pincha oilaviy birlik va ma’naviy tayanch g’oyasini ilgari suradi. Ayollar faqat hissiy obraz emas, balki siyosiy va ma’naviy barqarorlikni ta’minlovchi shaxs sifatida ham ko’rsatiladi. Bu jihat “Boburnoma”dagi ayol obrazlarining ko’p qirrali ekanini ko’rsatadi.

### **4. Bobur nutqida xolislik va yashirin muallif pozitsiyasi**

“Boburnoma”ning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, Bobur ko’pincha o’zini xolis bayonchi sifatida tutadi. U voqealarni fakt sifatida keltiradi, tarixiy shaxslarning ijobiy va salbiy tomonlarini birgalikda ko’rsatadi. Biroq bu xolislik mutlaqo neytral emas. Muallif tanlagan so’zlar, sintaktik qurilmalar va baholovchi birliklar orqali o’z pozitsiyasini yashirin tarzda ifodalaydi.

Masalan, Bobur Shayboniyxonning saharxezligi, besh vaqt namozni tark qilmasligi kabi ijobiy sifatlarini tilga oladi, ammo “vale” yuklamasi orqali bu ijobiy sifatlarini darhol salbiy axloqiy baho bilan cheklaydi. Bu usul o’quvchini muayyan xulosaga olib boradi: tashqi diniy amal shaxsning haqiqiy axloqiy qiyofasini oqlay olmaydi.

Xuddi shunday holat Xusravshoh tasvirida ham kuzatiladi. Uning namozxon va ro’zadorligi aytiladi, ammo “zolim va bedod” sifatлари bu tashqi dindorlikni inkor qiladi. Demak, Bobur uchun shaxsning haqiqiy bahosi uning tashqi ibodati yoki ijtimoiy maqomi bilan emas, balki amaliy xatti-harakati, adolati, odobi va insoniyligi bilan belgilanadi.

Bu jihatdan “Boburnoma”da nutq orqali shaxsni ijtimoiy baholash tamoyili yaqqol ko‘rinadi. Bobur kishilarni faqat tashqi qiyofasi yoki mansabiga ko‘ra emas, balki nutqi, amali, axloqi, boshqalarga munosabati va jamiyatdagi ta‘siriga qarab baholaydi. Shuning uchun asarda “xushsuhbat”, “lofchi”, “kalomxo‘sh”, “tadbirkor”, “oqila”, “zolim”, “fosiq”, “bebok” kabi birliklar oddiy sifatlash emas, balki shaxsiy va ijtimoiy qiyofani belgilovchi lisoniy vositalardir.

Bobur nutqida yashirin muallif pozitsiyasi ko‘pincha baholovchi birliklarning joylashuvi va sintaktik qurilmalar orqali ifodalanadi. Muallif ayrim hollarda ijobiy va salbiy sifatlarni ketma-ket keltirib, o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Bu esa pragmatik jihatdan kuchli ta‘sir uyg‘otadi. Chunki Bobur o‘z hukmini ochiq buyruq yoki keskin xulosa orqali emas, balki kontekst va lisoniy tanlov orqali yetkazadi.

Ayniqsa, “vale”, “ammo”, “garchi” kabi qarama-qarshilik bildiruvchi bog‘lovchi va yuklamalar Bobur nutqida muhim pragmatik vosita hisoblanadi. Bu birliklar orqali muallif biror shaxsning tashqi fazilati bilan ichki mohiyati o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatadi. Natijada matnda ikki qatlamli baholash yuzaga keladi: yuzaki ijobiy tasvir va chuqur salbiy hukm.

Bobur ayrim hollarda voqealarni ketma-ket sanash orqali ham yashirin pozitsiyasini bildiradi. U biror tarixiy shaxsning harakatlarini izchil tarzda bayon qiladi va natijada o‘quvchi ongida tabiiy ravishda muayyan axloqiy baho shakllanadi. Bu usul muallifning pragmatik mahoratini ko‘rsatadi. Chunki o‘quvchi muallif fikrini tayyor hukm sifatida emas, balki voqealar mantiqidan kelib chiqib qabul qiladi.

“Boburnoma”dagi yashirin muallif pozitsiyasi Boburning siyosiy va axloqiy qarashlari bilan ham uzviy bog‘liq. Muallif uchun adolat, insoniylik, vafo, hayo, oqillik va tadbirkorlik muhim fazilatlar sanaladi. Zulm, xiyonat, johillik, manmanlik va axloqsizlik esa keskin qoralanadi. Shu bois Bobur har bir shaxsni aynan shu mezonlar asosida baholaydi.

Bu jihatdan “Boburnoma” oddiy tarixiy xotiralar to‘plami emas, balki muallifning axloqiy-falsafiy qarashlarini ifodalovchi lisoniy-pragmatik matndir. Asarda voqealar va shaxslar tasviri orqali Boburning ichki dunyosi, siyosiy tafakkuri va axloqiy mezonlari ham namoyon bo‘ladi.

##### **5. “Boburnoma”ning pragmatik qiymati**

“Boburnoma”ni faqat tarixiy kundalik yoki memuar sifatida talqin qilish uning ilmiy qiymatini toraytiradi. Asar o‘zbek tilining pragmatik imkoniyatlarini, baholovchi nutq mexanizmlarini, nutq etiketi va ijtimoiy masofani ifodalash vositalarini o‘rganish uchun nihoyatda boy manbadir.

Bobur tilni shunchaki bayon vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy ta‘sir, siyosiy baho va axloqiy hukm vositasi sifatida qo‘llaydi. U faktlarni tanlaydi, ularni muayyan tartibda joylashtiradi, kerakli leksik birliklarni ishlatadi va o‘quvchini muayyan xulosaga olib keladi. Shu ma‘noda “Boburnoma”da til voqelikni aks ettirish bilan birga, voqelikni talqin qilish va baholash vazifasini ham bajaradi.

Navoiy asarlarida inson ko‘pincha ideal mezonlar asosida tasvirlansa, Bobur insonni real hayotdagi murakkabligi bilan ko‘rsatadi. U kishi fazilatlarini ham, nuqsonlarini ham yashirmaydi. Ammo bu jarayonda muallif oddiy kuzatuvchi emas, balki axloqiy mezonlarga ega shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun “Boburnoma”ni kelajak avlodlarga qaratilgan siyosiy-axloqiy tajriba matni sifatida ham baholash mumkin.

Asarning pragmatik qiymati, avvalo, undagi baholovchi nutq mexanizmlarida namoyon bo‘ladi. Bobur biror shaxsga baho berishda oddiy sifatlash bilan cheklanmaydi. U leksik birliklar, sintaktik parallelizm, antiteza, diniy-huquqiy terminlar, anafora va metonimik ifodalar orqali murakkab pragmatik tizim yaratadi. Natijada matn o‘quvchiga nafaqat axborot beradi, balki muayyan hissiy va axloqiy ta‘sir ham ko‘rsatadi.

“Boburnoma”da nutq etiketi ham alohida pragmatik ahamiyatga ega. Bobur yoshi ulug‘lar, ayollar, qarindoshlar yoki siyosiy maqomi yuqori shaxslar haqida yozganda ehtiyotkor va hurmat ifodalovchi til birliklarini tanlaydi. Dushmanlarga nisbatan esa tanqidiy va baholovchi birliklar ko‘proq qo‘llanadi. Bu esa asarda ijtimoiy masofa va kommunikativ maqom til orqali ifodalanganini ko‘rsatadi.

Asarda pragmatik ma‘no ko‘pincha yashirin tarzda yuzaga chiqadi. Muallif ayrim hollarda biror shaxsni bevosita qoralamaydi, ammo voqealarni tanlash, ularni ketma-ket joylashtirish va ma‘lum leksik vositalarni qo‘llash orqali o‘quvchini kerakli xulosaga olib keladi. Shu sababli “Boburnoma” pragmatik tahlil uchun juda boy material hisoblanadi.

“Boburnoma”ning yana bir muhim jihati — unda tarixiy voqelik bilan shaxsiy kuzatuvning uyg‘unlashganidir. Bobur voqealarni faqat hukmdor sifatida emas, balki kuzatuvchan inson sifatida ham tasvirlaydi. U tabiatni, inson xarakterini, shaharlarni, urf-odatlarini va kundalik hayotni mayda detallarigacha tasvirlaydi. Bu esa asarning pragmatik va kommunikativ qiymatini yanada oshiradi.

Asarda qoʻllangan diniy-huquqiy terminlar ham pragmatik vazifa bajaradi. “Fosiq”, “zolim”, “tafsir”, “qiroat”, “iddat”, “nikoh” kabi birliklar nafaqat diniy tushunchalarni ifodalaydi, balki muallifning axloqiy pozitsiyasini ham koʻrsatadi. Bu terminlar orqali Bobur shaxs va voqealarni diniy-axloqiy mezon asosida baholaydi.

Shuningdek, “Boburnoma”dagi pragmatik qiymat muallifning oʻquvchi bilan yashirin muloqotida ham namoyon boʻladi. Bobur ayrim voqealarni tasvirlar ekan, oʻquvchini ichki tarzda muhokamaga chorlaydi. Baʼzi joylarda achinish, ayrim joylarda gʻazab, boshqa oʻrinlarda esa hayrat yoki hurmat hissini uygʻotishga intiladi. Bu esa matnning emotsional-pragmatik taʼsir kuchini oshiradi.

Shu jihatdan “Boburnoma” oʻzbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini, baholovchi nutq vositalarini, diplomatik ifoda usullarini va ijtimoiy-kommunikativ meʼyorlarini oʻrganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

### **Xulosa**

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, “Boburnoma”da shaxs qiyofasi oddiy tavsif yoki tarixiy faktlar yigʻindisi orqali emas, balki murakkab lisoniy-pragmatik vositalar yordamida yaratiladi. Bobur har bir tarixiy shaxsga nisbatan alohida nutqiy strategiya qoʻllaydi. Raqiblariga nisbatan u xolislikni saqlagan holda baholovchi leksikadan foydalanadi; zolim shaxslarga nisbatan keskin axloqiy hukm chiqaradi; ayollar haqida yozganda esa ehtirom, etiket va lisoniy niqoblash usullariga tayanadi.

Muhammad Shayboniyxon obrazida Bobur antitezali baholash usuli orqali “kuchli, ammo axloqan nuqsonli” hukmdor qiyofasini yaratadi. Xusravshoh obrazida esa tashqi dindorlik bilan ichki zolimlik oʻrtasidagi ziddiyat asosiy baholovchi mezon sifatida maydonga chiqadi. Eson Davlatbegim va Xonzodabegim tasvirlarida Boburning shaxsiy, oilaviy va madaniy nutq etiketi namoyon boʻladi.

“Boburnoma”da baholovchi soʻzlar, qarama-qarshi konstruksiyalar, diniy-huquqiy terminlar, anafora, metonimiya va nutqiy ehtirom vositalari muallif pozitsiyasini ifodalashga xizmat qiladi. Bobur koʻpincha voqeani fakt sifatida bayon qiladi, ammo tanlangan lisoniy vositalar orqali bu faktga pragmatik va axloqiy yoʻnalish beradi. Shu jihatdan “Boburnoma” oʻzbek adabiy tili, tarixiy pragmatika, nutq madaniyati va shaxs tasviri masalalarini tadqiq etishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Asardagi pragmatik vositalar Boburning nafaqat tarixchi yoki hukmdor, balki nozik didli adib va kuchli nutq egasi boʻlganini ham koʻrsatadi. U shaxslarni tasvirlashda faqat tashqi voqealarga emas, balki ularning ichki mohiyati, axloqiy qiyofasi va jamiyatdagi rolga ham katta eʼtibor beradi. Shu sababli “Boburnoma”dagi har bir baholovchi birlik muayyan pragmatik maqsadga xizmat qiladi.

Bobur tilida diplomatik ehtiyotkorlik bilan axloqiy qatʼiyat uygʻunlashadi. Muallif ayrim hollarda keskin tanqid qiladi, ammo buni bevosita haqorat orqali emas, balki nozik lisoniy strategiyalar yordamida amalga oshiradi. Bu esa Bobur nutqining yuqori darajadagi pragmatik va stilistik mahoratini koʻrsatadi.

Umuman olganda, Bobur tili — bu voqelikni nafaqat qayd etuvchi, balki uni baholovchi, ijtimoiy maʼno yuklovchi va oʻquvchi ongida muayyan axloqiy pozitsiya shakllantiruvchi til hisoblanadi. “Boburnoma”ning lisoniy-pragmatik tahlili oʻzbek nutq madaniyatining tarixiy ildizlarini, diplomatik ifoda usullarini, baholovchi nutq mexanizmlarini va adabiy tilning ijtimoiy vazifalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Bobur Z.M. Boburnoma. — Toshkent: Fan, 1960.
2. Abdullayev A. Oʻzbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. — Toshkent: Fan, 1987. — 87 b.
3. Qozoqova N. Badiiy matn pragmatikasi. — Namangan: Arjumand Media, 2022. — 137 b.
4. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh. Grammatik kategoriya muammosiga doir ayrim mulohazalar // Oʻzbek tili va adabiyoti. — 1998. — № 6. — B. 21–26.
5. Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. — Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1990. — С. 29.